

O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Gulmuratov Sirojiddin Nuritdin o'g'li

“Guliston davlat universiteti” Menejment kafedrası o'qituvchisi,

e-mail: sirojiddingulmuratov13@gmail.com, +99899 917 87 18

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16601182>

Annotatsiya. Tezida O'zbekistonga zarur sayyohlarni jalb qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Turizm sohasidagi asosiy muammolar infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanmaganligi, sifatli yo'nalishlar, transport va xizmatlarga xalqaro talabning yo'qligi, ayrim davlatlar uchun viza rejimining murakkabligi va marketing strategiyasidir. Shuningdek, xalqaro reklama va turizm xavfsizligi obyektlari, shuningdek, ichki transport tizimida mahsulot va xizmatlar ko'rsatish uchun ishlab chiqarish quvvatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi ham muhokama qilindi. Muallif turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy infratuzilmani olish, viza rejimini soddalashtirish, xalqaro miqyosda samarali reklama kampaniyalarini tashkil etish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, turizm, turistlarni jalb qilish, infratuzilma, marketing, viza rejimi, xizmat ko'rsatish, reklama, transport, kadrlar.


Kirish: Hozirgi kunda turizm sohasida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sari sezilarli qadamlar tashlangan. Biroq, bu sohada kadrlar malakasining yetishmasligi va O'zbekistonda turizmning ko'plab yo'nalishlarini rivojlantirish borasida yetarlicha tajribaning yetishmasligi oqibatida xususiy tadbirkorlik biznesining rivojlanishi sust amalga oshmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda bir kunda tashrif buyuradigan turistlarning o'rtacha yigirmadan bir qismi qimmat narxdagi mehmonxonalar xizmatidan, ko'pchiligi esa, uch yulduzli otellardan foydalanish istagini bildirishadi.

Asosiy qism: 2023- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarga 2524,3 ming kishi joylashtirildi, ulardan 53,5 %i O'zbekiston fuqarolari, 19,9 % i MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va 26,7%i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

1.1 – jadval orqali 2023 yilda mamlakatimizga tashrif buyuruvchi Markaziy Osiyo, Yevropa, MDH va boshqa davlatlardan kelib joylashtirilgan sayyohlar foizlarda ko'rish mumkin.

1.1 – jadval

Joylashtirilgan shaxslar soni



2023 yilda O'zbekistonga kelgan chet el sayyohlarini joylashuvi bo'yicha ko'rsatkichlari¹

2023-yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirishirilgan shaxslardan 984,4 ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 962,6 ming kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda, 100,0 ming nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, 73,0 ming nafari ziyorat qilish maqsadida, 49,2 ming nafari davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 44,9 ming nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.

Markaziy Osiyo, Yevropa, MDH va boshqa davlardan kelgan sayyohlar joylashuv ob'yektlaridan foydalanish ko'rsatilgan. Umimiy tahlil asosida shuni alohida takidlashimiz mumkinki aynan Yevropadan kelgan sayyohlar asosan 4-5 yulduzli otellarda, Oliy ta'lim tomonidan yuboriladigan o'qituvchi va talabalar 2-3 yulduzli otellarda joylashgan. Qishloq mexmonxonalari va uylarida eng ko'p joylashuvchilar Markaziy Osiyodan kelgan sayyohlarga to'g'ri keladi.

Toshkent shahri bunday xizmatlar tizimini turistlarga taklif etishi mumkin, biroq poytaxtdan uzoqda joylashgan ko'plab hududlarda, ayniqsa, Termiz, Qoraqolpog'iston Respublikasi, Andijon va ayniqsa Sirdaryoda faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalar hali ham asosiy turistik oqimlarni o'zlariga jalb eta olmayaptilar. Chunki, bunday mehmonxonalar xorijiy turistlarni qabul qilishga to'laligicha tayyor emas, xizmatlar sifati ancha past ko'rsatgichda. Mahalliy darajada shaxsiy kapitalni rag'batlantirish, ya'ni umumiy turistik xizmat ko'rsatish tizimiga birlashgan shaxsiy uy va xonadonlarni ochish bunday muammoni ijobiy hal etilish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun xususiy tadbirkorlarga turistik trassada joylashgan har qanday shaharda o'n - yigirma kishiga mo'ljallangan shaxsiy uylarni qurishga ruxsat berish kerak. Shunday qilingandagina yuqorida aytib o'tilgan muammo o'z yechimini topadi. Muammolarni hal etish maqsadida 2019-2025 yillarda startegik yo'nalishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlandi. Bu kontsepsiya hozirgi kunda vujudga kelgan qator muammolarni hal etishga qaratilgan chora tadbirlar ko'zda tutligandir.

O'zbekiston turizmi sanoatida hali ham ovqatlanish bilan bog'liq masalalar muammoligicha qolmoqda. Masalan, Yevropaliklar standart usullarda tayyorlangan oddiy va xush ta'm taomlarni ma'qul ko'radilar, ammo mavjud mehmonxonalarning aksriyatida taomnomaning qariyb 80% i dan ortig'i milliy taomlarni tashkil etadi.

Xorijlik sayyohlarni ko'nglini topish va ularga o'zlari hohlagan taom va xizmatlarni ko'rsatish uchun bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Buning uchun esa, xorijiy mamlakatlardagi mehmonxona komplekslarida foydalaniladigan maxsus asbob-uskunalar va tegishli taom texnologiyalarini o'rnatish zarur.

Mamlakatimizdagi mahalliy mehmonxonalar 20-25 ga yaqin taomlarni taklif qilishi mumkin. Biroq, harbiy andozalar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan turistik komplekslar 200 ga yaqin taomlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Bu muammoni hal etilishining birdan-bir yo'li shaxsiy restoranlar va kafelar sonini oshirish va ulardagi xizmat ko'rsatish sifatini jahon andozalariga mos ravishda tashkil etishdir. O'zbekistonga xorijiy davlatlardan tashrif

¹ O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi, "2023- YILDA O'ZBEKISTONRESPUBLIKASIDA TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI" 7-bet

buyurgan turistlar bilan muloqot qilinganda, ularning 35 % i ovqatlanish xizmatlaridan qanoatlanganliklarini bildirishdi, 51 % i esa taomlar sifatiga baho berishni o'zlariga ma'qul topishmadi. Bunday muammoni hal etish uchun xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish ob'ektlarini sertifikatlash va nazorat qilish juda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, turistlar mahalliy taomning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida reklama prospektlari orqali xabar topishlari kerak. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, so'rovda ishtirok etgan xorijiy turistlarning 73 % ovqatlanish punktlarining xizmat ko'rsatishi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaganliklaridan shikoyat qildilar.

Jahonga mashhur Pegasus aviakompaniyasi loukosterlik yo'nalishida bir necha davlatlarda faoliyat yuritib keladi. Turizmni rivojlanishida muhim o'rin tutadigan loukoster aviakompaniyalarining xizmatlaridan, asosan, sayyohlar foydalanishadi. Pegasus O'zbekistonda ham loukoster aviakompaniyasini tashkil etish niyatida. Bu haqda Pegasus aviakompaniyasi boshqaruv kengashi raisi Ali Sabanji va aviakompaniya prezidenti Mehmet Nanelar Global Tadbirkorlik Kongresida ishtirok etayotgan O'zbekiston Innovatsion Rivojlanish vazirligi vakillari bilan uchrashuv chog'ida ma'lum qildi.

Ali Sabanji tarixi boy, diqqatga sazovor joylari bisyor bo'lgan O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida o'z takliflarini berdi. Shuningdek, O'zbekiston Innovatsion Rivojlanish Vazirligi vakillari Pegasus rahbariyatini O'zbekistonga taklif etarkan, tegishlik vazirlik, tashkilotlar bilan uchrashuvlar tashkil etishda ko'maklashish, biznes takliflarni hayotga tatbiq etish borasida hamkorlikka tayyor ekanliklarini bayon qilishdi.

Mamlakatizmizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohatlar jadal amalga oshirilayotganiga qaramasdan turistlarni jalb qilish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Quyida turistlarni O'zbekistonga jalb qilishdagi asosiylarini keltirib o'tilgan:

1. Infratuzilma va xizmat ko'rsatish sifati

Ba'zi hududlarda yo'l va transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan.

Mehmonxona va boshqa turistik obyektlarda xizmat ko'rsatish sifati xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi.

Ayroport va temir yo'l stansiyalaridagi qulayliklar turistlar talabiga mos emas.

2. Reklama va marketing yetishmovchiligi

O'zbekistonning turistik imkoniyatlari xalqaro miqyosda yetarli darajada targ'ib qilinmayapti.

Raqobatbardosh reklama strategiyalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot ishlari sust olib borilmoqda.

3. Viza va hujjatlar bilan bog'liq muammolar

So'nggi yillarda O'zbekistonda viza rejimi yengillashtirilgan bo'lsa-da, ba'zi mamlakatlar uchun hali ham vizasiz kirish imkoniyati yo'q.

Chegaradan o'tish jarayonlarida kechikishlar va qog'ozbozlik mavjud.

4. Turistik xavfsizlik va qulayliklar

Ba'zi sayyohlar uchun O'zbekistonda bank xizmatlari (karta to'lovlari, valyuta ayirboshlash) yetarlicha qulay emas.

Sayyohlar uchun tibbiy sug'urta va favqulodda yordam tizimi yetarlicha rivojlanmagan.

5. Turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi

Chet tillarni biladigan professional gid va turizm sohasi mutaxassislariga ehtiyoj katta.

Mehmonxona va restoran xodimlarining xizmat ko'rsatish madaniyati hamon yetarli darajada emas.

6. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish muammolari

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik shaharlarga e'tibor ko'proq qaratilgan, biroq boshqa viloyatlardagi turizm imkoniyatlari to'liq foydalanilmayapti.

Bu muammolar ustida ishlash orqali O'zbekistonni jahonning eng jozibador turistik yo'nalishlaridan biriga aylantirish mumkin.

Xulosa

O'zbekistonga sayyohlarni jalb etishda turizm sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Asosiy muammolardan biri infratuzilma muammolari, chunki yo'llar, mehmonxonalar, xalqaro aeroportlar va transport tizimini rivojlantirish kerak. Xususan, sayyohlik yo'nalishlari o'rtasidagi transport aloqalarini yaxshilash, zamonaviy xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, viza rejimini soddalashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga qaramay, ayrim mamlakatlar fuqarolari hali ham murakkab protseduralardan o'tishlari kerak. Bu potentsial sayyohlar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xorijiy sayyohlarni axborot bilan ta'minlash ham yetarlicha ishlab chiqilmagan, reklama va marketing strategiyasining zaifligi O'zbekistonga tashrif buyurish istagini kamaytirishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi kamchiliklar ham muhim muammo sanaladi. Xususan, sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish, mehmonxona va restoran xodimlarining xorijiy tillarni bilishi, ularning mijozlar bilan ishlash madaniyatini oshirish talab etiladi. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy turistik manzillarning yetarlicha targ'ib qilinmagani sababli O'zbekiston dunyo miqyosida yetarlicha tanilmagan. Raqobatbardosh turistik mahsulotlar yaratish, xalqaro turizm yarmarkalarida faol ishtirok etish va raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish orqali mamlakatning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston turistik salohiyatga boy bo'lsa-da, bu sohada hali hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, turistik marketingni kuchaytirish va xorijiy sayyohlar uchun qulay muhit yaratish orqali turizm sohasini jadal rivojlantirish mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M.Mirziyoyev. (2017). Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak . Tashkent : O'zbekiston, 2017 yilda.,104 bet.
2. M.Amonboev, N.Juraeva. (2018). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti o'quv uslubiy majmua. T;TDIU 2018 yilda 225 bet. (20-32-betlar)
3. Christopher Dougherty. Introduction to econometrics. (2011). 336 p.
4. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A (2019). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2019. - 226 bet.
5. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi, (2024) "2023- yilda

o'zbekistonrespublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" 2024 y.,
15-bet.

